

Qodirova Dilduza G'opirjon qizi,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti.

Email: qodirovadilfuza3313@gmail.com

SO'Z O'ZLASHTIRISH VA UNING BOSQICHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'z o'zlashtirish jarayoni va uning turli bosqichlari, tarixiy davrlari va asosiy sabablarining tahlili keltirilgan. Hamda so'z o'zlashtirish milliy tilning fonetik, morfologik va grammatik qoidalariga moslash orqali boshqa tillardan yangi so'zlarni milliy tilning leksikasiga qo'shilishi haqida va ularning tilga moslashish jarayonlarini bosqichma-bosqich yoritilgan.

Kalit so'zlar: *So'z o'zlashtirish, o'zlashma so'zlar, fonetik moslashuv, morfologik moslashuv, semantik moslashuv.*

Қодирова Дилфуза Ғопиржон қизи,

Докторант , Наманганский государственный университет

Email: qodirovadilfuza3313@gmail.com

СЛОВО ЗАИМСТВОВАНИЕ И ЕГО ЭТАПЫ

Аннотация: В данной статье анализируется процесс заимствования слов, его различные этапы, исторические периоды и основные причины. Заимствование слов – это процесс адаптации новых слов из других языков к фонетическим, морфологическим и грамматическим правилам национального языка, что добавляет заимствованные слова в лексику национального языка. Кроме того, поэтапно освещены процессы адаптации заимствованных слов из иностранных языков.

Ключевые слова: *заимствование слов, заимствованные слова, фонетическая адаптация, морфологическая адаптация, семантическая адаптация.*

Qodirova Dilfuza Gopirjon kizi,

Doctoral student of Namangan State University

Email: qodirovadilfuza3313@gmail.com

WORD BORROWING AND ITS STAGES

Abstract: This article analyzes the process of word borrowing, its various stages, historical periods, and primary causes. Word borrowing is the process of adapting new words from other languages to the phonetic, morphological, and grammatical rules of the national language, thus incorporating borrowed words into the national lexicon. Additionally, the article outlines the step-by-step adaptation of borrowed words from foreign languages.

Keywords: *word borrowing, borrowed words, phonetic adaptation, morphological adaptation, semantic adaptation.*

Kirish

Soʻz oʻzlashtirish boshqa tillardan yangi soʻzlarni qabul qilib, ularni milliy tilning fonetik, morfologik va grammatik qoidalariga moslashtirish jarayonidir. Bu jarayon milliy tillarning leksik boyishini taʼminlab, madaniy almashinuv va turli sohalardagi rivojlanishlar orqali yangi tushunchalarni tilga olib kiradi. Soʻz oʻzlashtirish keng tushuncha boʻlib, oʻzlashtirish obyekti boʻlgan tushuncha yoki narsaga jamiyat tomonidan ehtiyoj tugʻilganda yuzaga chiqadi. Sunʼiy ravishda qabul qilingan keraksiz soʻzlar esa tabiiy ravishda lugʻat tarkibidan nomeʼyoriy hodisa sifatida siqib chiqariladi. Madaniy oʻzgarishlar taʼsirida tilning bosh manbasi muayyan darajada oʻz vazifasini bajara olmay qolishi mumkin, bu narsa soʻz oʻzlashtirish jarayoniga turtki boʻlib xizmat qiladi [3: 312]. Tillarning oʻzaro taʼsiri masalasi lingvistlarni koʻpdan buyon qiziqtirib kelayotgan muammolardan sanaladi.

Adabiyotlar tahlili

Jahon va o'zbek tilshunosligida so'z o'zlashtirish masalasi bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Andre Meilletning "Linguistique historique et linguistique g n rale" (Tarixiy va umumiy tilshunoslik) asarida tillarning rivojlanishida so'z o'zlashtirishning roli va madaniy almashinuv natijasida tilga kiradigan o'zgarishlar tahlil qilingan. Uriel Weinreichning "Languages in Contact" (Aloqadagi tillar) kitobida ikki tilning o'zaro ta'siri va interferensiya masalalari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, L.Blumfeld, N.Z.Gadjiyeva, I. Zarubin, G.A.Kazakbayeva kabi tilshunoslar qator tadqiqotlar olib borganlar.

O'zbek tilshunosligida so'z o'zlashishi yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu yo'nalishdagi dastlabki urinish F. Abdullayevning nomzodlik dissertatsiyasida o'z aksini topgan bo'lsa, keyinchalik bir qator ko'zga ko'ringan olimlarning ilmiy ishlarida ham shu sohaning ayrim qismlari o'rganib chiqilgan [6:576]. Jumladan, U. Qo'ziyevning "O'zlashma so'zlar va tilning me'yorlashuvi", "So'z o'zlashtirish va baynalmilal leksika", "O'zbek tilida o'zlashma so'zlarning taraqqiyot bosqichlari" nomli tadqiqotlarida chet tillaridan kirgan so'zlarning leksik va grammatik tizimlarga ta'siri tahlil qilinadi. Sh. Sirojiddinovning "So'z o'zlashtirish omillari xususida", N.Iskanova "Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so'zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili" ("Xalq so'zi" gazetasi materiallari asosida), O. Shukurovning O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi, va leksikografik talqini masalalari (Mustaqillik davri) kabi tadqiqotlarida o'zlashma so'zlarni turli jihatdan tahlil va talqin qilib berishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda jahon va o'zbek tilshunosligi tadqiqotlariga asoslanib, so'z o'zlashtirish jarayonidagi fonetik, morfologik va semantik jihatlarini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

O'zga tildan qabul qilingan so'z [5:138] keng ma'noda o'zlashma so'z deyiladi.

O‘zlashma so‘zlar lug‘at tarkibining tashqi manba asosida boyishi hosilasi hisoblanadi. O‘zlashmalarning asosiy belgilari sifatida uning individual va kollektiv nutqda keng, uzluksiz, uzoq davr qo‘llanishi, kerakliligi, o‘z qatlam qonuniyatlariga bo‘ysunishi, tilning leksik-semantik tizimiga singishganligi, amaliy yozuvga moslashganligi, tabiiy va aniqligi, me‘yor hisoblanishi ko‘rsatiladi. Jumladan, ko‘pgina tojikcha va arabcha o‘zlashma so‘zlar o‘zbek xalq nutqida asrlar mobaynida qo‘llanib kelgan. Bu hol so‘zlarning o‘zbek tili lug‘aviy me‘yorlariga singib ketishiga asos bo‘lgan [3:313].

So‘z o‘zlashtirish jarayonini vaqtga nisbatan davrlarga, so‘zlarning milliy til sistemasiga moslashish jarayoniga ko‘ra bosqichlarga va ijtimoiylashuviga ko‘ra sabablarga bo‘linishini quyidagi jadvalda havola qilamiz.

1-jadval

Milliy til sistemasiga moslashish jarayoniga ko‘ra o‘zlashish bosqichlari.

No	O‘zlashish davrlari	O‘zlashma so‘z bo‘lishi uchun yuz beradigan jarayonlar		O‘zlashish sabablari
1.	Arab davri (VIII-XII asrlar)	Fonetik o‘zlashish – so‘z yangi tilning tovush tizimiga moslashadi.	–o‘zlashma so‘z uni qabul qilgan tilning praktik yozuv	Madaniy almashinuv va din
2.	Fors-tojik davri (XII-XVI asrlar)	Morfologik o‘zlashish – so‘z yangi tilning morfologik qoidalariga moslashadi va o‘sha tilga xos affikslarni qabul qiladi.	xususiyatlariga moslash; –o‘zlashtiruvchi til grammatik sinflari, kategoriyalariga mos kelishi; –qayta fonetik shakllanishi;	Ilm-fan va texnologiya rivoji
3.	Rus davri (XIX-XX asrlar)	Grammatik o‘zlashish – so‘z yangi tilning sintaktik tizimiga moslashadi.	–qabul qiluvchi tilga grammatik singishi; –so‘z yasash sistemasida faol	Ijtimoiy-siyosiy omillar
4.	Globalizatsiya davri (XX asr oxiri-hozirgi vaqt)	Semantik o‘zlashish–so‘zning ma’nosi torayadi, kengayadi yoki	ishtirok etishi; –semantik jihatdan singishi;	Savdo va iqtisodiy munosabatlar

		yangi ma'no qabul qiladi.	–tilda uzluksiz ishlatilib, ijtimoiy faollashuvi	
--	--	---------------------------	--	--

Soʻz oʻzlashtirish jarayoni tarixiy madaniy oʻzgarishlarga, iqtisodiy va siyosiy omillar asosida yuzaga kelgan. Masalan, XV-XVIII asrlarda arab va fors tillaridan soʻzlar oʻzlashtirilgan boʻlsa, XX asrda esa rus, ingliz tillaridan oʻzlashmalar koʻproq tarqalgan. Soʻz oʻzlashtirish jarayoni tilning tarixiy rivojlanishi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, turli davrlarda madaniy, iqtisodiy, siyosiy oʻzgarishlar taʼsirida yangi soʻzlar tilga kirib keladi. (Vigdorova Z., “Word Borrowing: A Historical Perspective”, 1991). Soʻz oʻzlashtirish faqat til tizimi doirasida emas, balki madaniy va ijtimoiy kontekstda ham amalga oshadi. Soʻzlar, ayniqsa, texnik sohalarda yangi tushunchalar va ilmiy terminologiyalar sifatida kiradi. Oʻzlashuv jarayoni madaniyatlararo muloqotning va madaniy almashuvning natijasi sifatida, bu yangi soʻzlarning qabul qilinishiga olib keladi. Quyida soʻz oʻzlashtirishning davrlari va sabablariga tayangan holda, 1-jadvalning oʻrta qismida koʻrsatilgan milliy tili sistemasiga moslashish jarayoniga batafsil toʻxtalamiz.

Soʻz oʻzlashtirish bosqichlari boshqa tillardan olingan soʻzlarning milliy tilga moslashish jarayonini bosqichma-bosqich tushunish imkonini beradi. Oʻzlashma soʻzlar avval til tovush tizimiga moslashib, fonetik oʻzgarishlarni boshdan kechiradi. Soʻngra morfologik bosqichda milliy tilning oʻzak va qoʻshimchalar tizimiga moslashadi. Bu jarayon davomida soʻzlarning maʼno va talaffuzi yangi tilga yaqinlashadi. Grammatik bosqichda esa oʻzlashgan soʻzlar tilning sintaktik qoidalariga moslashadi, yaʼni u turli qoʻshimchalar bilan erkin ishlatilishi mumkin boʻladi. Eng oxirgi bosqich – semantik oʻzlashishda, soʻzning maʼnosi yangi tilga moslashadi va baʼzan yangi maʼno ham qabul qiladi.

Soʻzlarning boshqa tilga moslashishining birinchi bosqichi fonetik oʻzlashuvdir. Bunda soʻzlar boshqa til tovush tizimiga moslashadi. Bu bosqichda soʻzlarning talaffuzi oʻzgaradi, yaʼni ular oʻzbek tilining fonetik tizimiga

moslashadi. Masalan, ingliz tilidagi **cheese** soʻzi oʻzbek tilida **chiz** shaklida talaffuz qilinadi. Fonetik oʻzlashuv tilning tovush tizimi bilan bogʻliq.

2-jadval

Fonetik oʻzlashuv bosqichi.

Chet tilidagi soʻz	Inglizcha transkripsiyasi	Oʻzbekcha talaffuzi. Fonetik bosqich	Oʻzbek tilining izohli lugʻatida berilishi
Hamburger	/ˈhæmˌbɜːɡə/	[gamburger]	GAMBURGER [ingl. hamburger < ham dudlangan son goʻshti + burger - ichiga biror narsa solib pishirilgan bulochka] Toblab, qizartirib pishirilgan goʻsht yoki qaynoq goʻshtli qiyma hamda qayla, oshkoʻklar qoʻshilgan buterbrod. 2-tom 182-bet
Pizza	/ˈpiːtsə/	[pitsa]	PITSA [ital. pizza achchiq na boʻlmoq] Yupqa xamir ustiga goʻsht, qoʻziqorin, sabzavotlar, sir (pishloq) qoʻyib pishirilgan italyancha taom. Pitsa tayyorlamoq. 3-tom 737-bet
Cheeseburger	/ˈtʃiːzbɜːgər/	[chizburger]	CHIZBURGER [ingl. cheese < pishloq + burger -ichiga biror narsa solib pishirilgan bulochka] Toblab, qizartirib pishirilgan goʻsht yoki qaynoq goʻshtli qiyma hamda qayla, oshkoʻklar, pishloq qoʻshilgan buterbrod. (Oʻzbek tilining izohli lugʻatiga kiritilmagan)
Crisps	/krɪsps/	[chips]	Ingliz tilida “chips” deb ataladigan kartoshka boʻlaklarini anglatadi. Oʻzbek tiliga inglizcha shaklida kirgan. (Oʻzbek tilining izohli lugʻatiga kiritilmagan)
Shawarma	/ʃɑːˈwɑːrmə/	[shourma]	Arabcha soʻz boʻlib, ingliz tiliga usmonli turk tili davrida oʻzlashgan, oʻzbek tiliga esa ingliz tili orqali kirib kelgan. (Oʻzbek tilining izohli lugʻatiga kiritilmagan)

			kiritilmagan)
--	--	--	---------------

Morfologik o'zlashish bosqichida o'zlashgan so'z o'zbek tilining morfologik tizimiga moslashadi. Yangi so'zlar o'zbek tilining qo'shimcha shakllari bilan ishlashga kiradi. Masalan, inglizcha manager so'zi o'zbek tilida menejer shaklida o'zlashgan va morfologik jihatdan ham o'zbek tilining grammatik qoidalariga moslashgan.

Morfologik o'zlashish jarayonida so'zlar yangi tilning morfologik shakllarini qabul qiladi. Bu jarayon so'zning sintaktik va semantik moslashuviga olib keladi. Bundan tashqari, morfologik moslashuvda chet so'z o'zining tarkibidagi ayrim morfalaridan voz kechgan holda o'zlashadi. Masalan, ingliz tilida otlar oldidan qo'llanuvchi artikllar(the, a), nemis tilidagi artikllar(der, die, das), jinsni ko'rsatuvchi ayrim qo'shimchalardan holi holatda moslashadi.

3-jadval

Morfologik bosqich.

Chet tilidagi so'z	Fonetik bosqich	Morfologik bosqich
Pizza (italyancha)	Pitsa	“Pitsa” so'zi ham morfologik o'zlashuvdan o'tib, “pitsani”, “pitsaga”, “pitsalarda” kabi shakllarda ishlatiladi.

Fonetik o'zlashuv va morfologik o'zlashuv jarayonlari o'zbek tilining boshqa tillardan so'z qabul qilishida ikki muhim bosqich hisoblanadi. Fonetik o'zlashuv so'zning talaffuzini tilga moslashtirsa, morfologik o'zlashuv so'zning grammatik tizimda to'liq qabul qilinishini ta'minlaydi. Shu tariqa, fonetik o'zlashuvdan keyin, morfologik o'zlashuv so'zning o'zbek tilida to'liq shakllanishini va mazkur til qoidalariga ko'ra qo'llanishini ta'minlaydi.

Grammatik o'zlashish bosqichida o'zlashmalar tilning sintaktik va grammatik qoidalariga moslashadi. Bu bosqichda so'zlar tilning sintaktik strukturasiga kiradi va kerakli grammatik shakllarni qabul qilib sintaktik qolip tarkibida qo'llana olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon so'zlarning jumlada qanday joylashishi, ularning boshqa so'zlar bilan munosabatda bo'lishi, ya'ni sintaktik roli o'zgarishiga olib keladi. Masalan, pitsa (pizza italyanча ingliz tili orqali o'zbek

tiliga o‘zlashgan) so‘zni sintaktik moslashuvga kirib kelganida pizza so‘zi o‘zbek tilida grammatik shakllar, qo‘shimchalar bilan ishlatilib, jumlagam moslashadi. “*Belissimo Pitsa*”dan buyurtma qilingan mazali pitsani paqqos tushirdi. Pizza o‘zbek sintaksisiga moslashganda, “pitsa” so‘zi grammatik shakllar qabul qilib va o‘zbek tilining sintaktik strukturasiga muvofiq aloqaga kirisha oladi.

4-jadval

Grammatik bosqich.

Chet tilidagi so‘z	Fonetik bosqich	Morfologik bosqich	Grammatik bosqich
Pizza (italyancha)	Pitsa	“Pitsa” so‘zi ham morfologik o‘zlashuvdan o‘tib, “pitsani”, “pitsaga”, “pitsalarda” kabi shakllarda ishlatiladi.	“ <i>Belissimo Pitsa</i> ”dan buyurtma qilingan mazali pitsani paqqos tushirdi.

O‘zlashmalarning sintaktik struktura bo‘yicha moslashishi, ularning o‘zbek tilining grammatik qoidalariga to‘liq mos kelishidir. Bu jarayon o‘zlashgan so‘zlarning qo‘shimchalar bilan ishlatilishi, o‘zbek tilida to‘g‘ri sintaktik o‘rinlarda qo‘llanilishini ta‘minlaydi. O‘zlashmalar jumlagam kiritilganida, ular o‘zbek tilining sintaksisiga muvofiq tuzilmada ishlatiladi.

Semantik o‘zlashish so‘zning ma‘no va funksiyasini boshqa tilning madaniyati va tajribasiga moslashish jarayonidir.

Semantik o‘zlashish bosqichida so‘zlarning ma‘nosi o‘zgaradi. So‘zlar yangi tilga moslashib, ba‘zan yangi ma‘no yoki kengaytirilgan ma‘no qabul qilishi mumkin. Masalan, inglizcha *computer* so‘zi o‘zbek tilida “kompyuter” sifatida o‘zlashgan, lekin u nafaqat texnik vosita sifatida, balki ishlash jarayoniga taalluqli bo‘lgan atama sifatida ham ishlatiladi. *Uning kallasi kompyuter kabi*. Yoki forschadan o‘zlashgan *durust* – to‘g‘ri, halol, butun, komil, tetik, mo‘l ma‘nolarini bildirib, o‘zbek tilida asosan to‘g‘ri va tetik ma‘nosi bilan o‘zlashgan.

5-jadval

Semantik bosqich.

Chet tilidagi soʻz	Fonetik bosqich	Morfologik bosqich	Grammatik bosqich	Semantik bosqichida
Computer	Kompyuter	Kompyuterlar, kompyuter(-ning, -ni, -ga...)	<i>Doʻkonga qimmatbaho kompyuterlar keldi.</i>	<i>Uning kallasi kompyuter kabi.</i>

Soʻz oʻzlashtirish jarayonining har bir bosqichida fonetik, morfologik, grammatik va semantik oʻzgarishlar sodir boʻlishi mumkin. Bu jarayon, tilning rivojlanishi va madaniyatlararo oʻzaro taʼsirlarning mahsuli sifatida, oʻzbek tilida ham koʻplab oʻzlashmalar oʻzgarishlarga uchragan.

Xulosa

Soʻz oʻzlashtirish tilning rivojlanishida muhim rol oʻynaydi. Ular tilga yangi mazmun kiritish, global madaniyatga moslashish va kommunikatsiya ehtiyojlarini qondirishda yordam beradi. Oʻzlashma soʻzlar birinchi navbatda tilga integratsiyalashadi, yaʼni ular fonetik, morfologik, grammatik va semantik jihatdan til tizimiga toʻliq moslashadi. Soʻzlarning talaffuzi va shakllari oʻzgarishi, oʻzbek tilining fonetik qoidalariga va grammatik tuzilishiga mos kelishi, ularning tilga qanday singishini koʻrsatadi. Bu jarayon tilning oʻziga xosligini saqlagan holda yangi tushunchalarni qabul qilishini taʼminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1989. – Б. 200.
 1. Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. 6-сон.
 2. Қўзиев У. Ўзлашма сўзлар ва тилнинг меъёрлашуви // НамДУ илмий ахборотномаси, № 12. – Наманган, 2020. – Б. 313.
 3. Сирожиддинов Ш. Сўз ўзлаштириш омиллари хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017. – № 4. – Б.84.
 4. Ҳожиёв А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили луғат таркибининг ривожланиш асослари // ЎТА, №1-2, 1994.

5. Qo'ziyev U. O'zbek tilida o'zlashma so'zlarning taraqqiyot bosqichlari // NamDU Ilmiy Axborotnomasi, №10. – Namangan, 2024. – 575.
6. Iskanova N. Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so'zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili ("Xalq so'zi" gazetasi materiallari asosida) – Samarqand, 2021.
7. Shukurov O. O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi, va leksikografik talqini masalalari (Mustaqillik davri) – Qarshi, 2022.